

## SHEROBOD TARIXINI O'RGANISH DAVRI VA SHEROBOD DARYOSINING DEHQONCHILIKDAGI O'RNI

**Toshmamatov Azizbek Tohir o'g'li**

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti*

*(Mamlakatlar va mintaqalar)yo'nalishi*

*4 bosqich 403-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Etnografik olimlarning Sherobod tarixini o'rganish davri va hozirgi sherobod shahri haqida XIX asrning birinchi yarmidagi o'lkani o'rganish, ya'ni mahalliy tarixchilik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganish yoritilgan.*

**Sherobod bekligi** yoki **Sherobod viloyati** (o'zbekcha: Sherobod bekligi Buxoro amirligi tarkibidagi ma'muriy birlik, yirik bekliliklardan biri hisoblangan. Buxoro amiri Muhammad Rahimxon tomonidan 1757-yilda tashkil qilinadi.<sup>1</sup> U asosan o'z odamlarini ma'muriy-siyosiy boshqaruvga o'zining sodiq odamlarini qo'yadi. Sherobod bekligi janubda Amudaryo sohillari hamda Qorakamar kechuvidan Pattakesargacha, sharqda Surxondaryoning o'ng qirg'og'i va Jarq'org'on qishlog'ini, shimoli-g'arbda Istara arig'i va Sherobod shahridan Tallak, Xo'jai tog'larining yon bag'rilarigacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan. Hozirgi hududi O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyatida Sherobod tumanida joylashgan. Ma'muriy markazi Sherobod shahri bo'lgan.<sup>2</sup>

**Amlokdorlik** Sherobod bekligi hududi o'z ichiga oltitta amlokdorlikni olgan. Bular Tallashqon, Solihobod, Jarqo'rg'on, Gilambop, Saidobod nomlangan, hamda Sherobod shahrining atrofi ham alohida amlokdorlik hisoblangan. N. A. Mayevning ma'lumotlariga ko'ra amlokdorliklar beshta bo'lgan deb keltiriladi. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib amlokdorlar soni yettitaga oshadi. Sherobod bekligidagi 1885-1886 yillarda amir siyosatiga qarshi xalq norozichilik harakatlari bo'lib o'tgan. Asosiy sababi soliqlarning ko'payib ketishi bo'lgan. Beklikdagi xususiy yer egaligi mulki hur yoki xolis deb atalgan. Bu yerlar amirga ma'lum xizmat ko'rsatgan yoki janglarda alohida jasorat ko'rsatgan shaxslarga berilgan. Sherobod bekligidagi Poshxurd, Maydon, Vandob, Sariq, Chig'atoy qishloqlarida 100 botmon yerlar egalariga yorliqlar in'om qilinib tarqatilgan.<sup>3</sup>

**Suv islohoti** 1912-yil 23-fevralda Buxoro amirligining Yer ishlari bo'yicha vaziri Mirza Nasrulloboy Qushbegi rus muhandisi A. G. Anan'yevga Sherobod bekligiga tegishli bo'lgan

<sup>1</sup>.S. N. Tursunov Surxondaryo etnografiyasi . o'quv qo'llanma. Toshkent , tafakkur , 2020 yil

<sup>2</sup>. Tursunov S.N. T. Pardayev . Surxondaryo – etnografik makon. Toshkent . 2012 .akademik nashriyoti

<sup>3</sup>.Tursunov S.N. T. Pardayev G. Ahmedova O'zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy sa'nat yodgorliklari tarixi Toshkent ,2012 Akademik nashriyoti

yerlardan foydalanish haqidagi shartnomani imzolaydi. Shartnomaga ko'ra 72000 desyatina yerning Qoraqamar, Beshqo'ton, Angor, Yangiariq, Amudaryo va Kattaqum hududlarida joylashgan ulushlari A. G. Anan'yevga bepul foydalanish uchun taqdim qilinadi Surxondaryo viloyatidagi tuman. 1926- yil 29-sentabrda tashkil etilgan.<sup>4</sup>

G'arb tomondan Turkmaniston bilan chegaradosh. Tuman shimoldan Boysun, shimoli-sharqdan Bandixon, sharqdan Qiziriq, janubdan Muzrabot, janubi-sharqdan Angor tumanlari, shimoli g'arbdan Qashqadaryo viloyati, g'arbdan Turkmaniston bilan chegaradosh. Maydoni 2,73 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 173.2 ming kishi (2018). Sherobod tumanida 1 shahar (Sherobod), 9 qishloq fuqarolari yig'ini Bo'ston, Zarabog', Oqqo'rg'on, Rabotak, Sariqamish, Seplon, Talashqon, Ko'hitang, Yangiturmush) bor. Markazi - Sherobod Shahri hisoblanadi.<sup>5</sup>

Rossiya siyosiy agentligi topshirig'i bilan Buxoro amirligiga qarashli Sherobod va Denov beklilari hududida joylashgan Sheroboddaryo va Surxondaryo to'liq o'rganilib, ushbu daryolarning boshlang'ich irmoqlari, daryoga qo'shiluvchi jilg'alar, soylar, irmoqlar, shuningdek, daryolarning qaysi o'zanlaridan o'zlashtirish kerak bo'lgan yerlarga suv chiqarish kerakligi aniqlandi va qazilishi zarur bo'lgan kanallar, ariqlarning loyihalari ishlab chiqildi. 1908 yili harbiy muhandis Yermolaev tomonidan Amudaryo suvlari bilan Buxoro amirligining janubiy hududlaridan 30 ming desyatina yerni o'zlashtirish ham rejalashtirilgan edi.<sup>6</sup>

1910 yilning sentyabrida Turkiston general-gubernatori muhandisning xatini Rossiyaning Buxoro amirligidagi siyosiy agenti A.A.Izvol'skiyga yo'llab, Sherobod va Boysun beklilardagi yerlarning o'zlashtirilishi nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-siyosiy ahamiyatga molik ekanligini ta'kidladi. Natijada, rus ma'murlari konsessiya g'oyasini Buxoro amiri oldida qo'llab-quvvatladilar.<sup>7</sup>

Keyinroq A.G.Anan'ev Termiz yaqinida ijaraga yer olishga harakat qilib, Buxoro amirining yetakchi amaldorlaridan bo'lgan Ostonaqul qushbegiga murojaat qildi. 1908 yilda Sherobod begi Mirzo Salimbek yer muammosini hal qilish maqsadida yangi yerlarni o'zlashtirish uchun hashar yo'li bilan Jarqo'rg'on arig'ini Zang qishlog'igacha kengaytirdi.<sup>8</sup>

Ariq Zang qishlog'ida o'n ikkita mayda ariqchalarga bo'linib, atrofidagi yerlarga suv berdi. 1911 yilning sentyabrida aholi Zang arig'ini yana kengaytirish masalasida Buxoro amiriga murojaat qildi. Sherobod begi amirdan xalqning talabini qondirish to'g'risida ko'rsatma oldi va 1912 yilda to'laligicha Zang arig'ini kengaytirish ishlari amalga oshirildi.

<sup>4</sup>.Qobulov E.A. Surxon vohasi xo'jaligi, - T. "Sharq." 2012

<sup>5</sup>. S.Tursunov, A.Tursunov. M.Tog'ayeva. Sherobod tarixidan lavhalar."Yangi nashr".Toshkent. 2014.B.356. 113 b.

<sup>6</sup>. S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, B.Murtazoyev. Surxondaryo tarixi."Sharq".Toshkent. 2004.B.608. 182 b.

<sup>7</sup>. S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, B.Murtazoyev. Surxondaryo tarix ko'zgasida."Sharq".Toshkent. 2001.B.384.

126 b.

Sherobod begi Robixo'javiy atrofdagi aholidan tashqari Gilambob, Talloshqon, Maydaariq amlakdorliklaridan ham ishchi kuchi jalb qilib, ikki oy davomida kuniga ming, bir yarim ming mardikorni ishlatib, ariqni Novshahargacha yetkazdi. Mahalliy aholi yangi o'zlashtirilgan yerlarga kelib o'rnashdi. Zang arig'ining ta'mirlanishi natijasida aholi konsessiya yerlariga o'rnashib oladi va o'zining huquqlarini himoya qilishga kirishdi. 1916 yilning 12 martida rus ma'murlarining tazyiqi bilan amir yangi shartnomaga qo'l qo'yishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, konsessiya maydonida joylashgan xo'jaliklar jamiyat bilan shartnoma tuzishlari kerak edi. Zang arig'idan suv ichadigan lekin konsessiya maydoniga kirmagan xo'jaliklarning yerlari jamiyat tarkibiga kirishi yoki suvdan mahrum qilinishi kerak edi. Shartnoma e'lon qilinganidan keyin aholi o'rtasida norozilik kuchaydi. Rossiya imperiyasining Surxon-Sherobod vohasini o'zlashtirishdan asosiy maqsadi, paxtachilik sanoati uchun xom-ashyo bazasini yaratish, minglab rus aholisini ko'chirib keltirish hamda Surxon-Sherobod dashtlarini sug'orishga jiddiy krishish edi va buni amalga oshirdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.S. N. Tursunov Surxondaryo etnografiyasi . o'quv qo'llanma. Toshkent , tafakkur , 2020 yil.
- 2.Tursunov S.N. T. Pardayev . Surxondaryo – etnografik makon. Toshkent . 2012 .akademik nashriyoti.
- 3.Tursunov S.N. T. Pardayev G. Ahmedova O'zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy sa'nat yodgorliklari tarixi Toshkent ,2012 Akademik nashriyoti.
- 4.Qobulov E.A. Surxon vohasi xo'jaligi, - T. "Sharq." 2012
- 5.S.Tursunov, A.Tursunov. M.Tog'ayeva. Sherobod tarixidan lavhalar."Yangi nashr".Toshkent. 2014.B.356. 113 b.
- 6.S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, B.Murtazoyev. Surxondaryo tarixi."Sharq".Toshkent. 2004.B.608. 182 b.
- 7.S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, B.Murtazoyev. Surxondaryo tarix ko'zglasida."Sharq".Toshkent. 2001.B.384. 126 b.